

JINOYAT SUBYEKTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
Sodiqjonova Sevinch XXX*

Annotatsiya Ushbu maqolada jinoyat tarkibining elementlaridan biri bo'lgan jinoyat subyekti, uning zaruriy belgilari, maxsus subyekt va uning belgilari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat subyekti, zaruriy belgilar, aqli norasolik, subyekt yoshi, maxsus subyekt.

Jinoyat subyekti jinoyat tarkibining ajralmas elementi hisoblanadi. Jinoyat subyekti va uning belgilari JK Umumiy qismining IV bobida belgilab berilgan bo'lib, bu bob «Javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar» deb nomланади. Bu belgilarni umumiy jinoyat subyektiga tegishli deb nomlash belgilab qo'yilgan¹. Jinoyatning subyekti — ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxsdir. O'zR JK 17-moddasida belgilanishicha jinoyat sodir etgunga qadar jinoyat qonunida nazarda tutilgan yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxslar jinoyatning subyekti bo'ladilar². Jinoyat subyektining **zaruriy belgilari** quyidagilar:

- jismoniy shaxs bo'lishlik;
 - aqli rasolik; -
- jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetganlik.

Ayrim hollarda, jinoyat qonuni, subyektida yuqorida ko'rsatilgan belgilardan tashqari qo'shimcha belgilarning ham bo'lishini talab qiladi. Bu belgilarga ega bo'lgan shaxslar esa – maxsus subyekt deb yuritiladi.³

Jinoyat subyektining zarur belgilari bilan qo'shimcha belgilar kelib, **maxsus subyektni tashkil etadi**. **Qo'shimcha belgilar** quyidagilar: fuqarolik, demografik belgilar, mansab, harbiy xizmatga aloqadorlik, bajarayotgan ishi, kasbiy majburiyati va boshqalar.

Ushbu belgilar ayrim jinoyatlar tarkibining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ya'ni ushbu belgilarning mavjud emasligi, shaxs qilmishining o'sha modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinmasligini anglatadi. Odatda, ushbu belgilar **JK Maxsus qism moddasida** jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida to'g'ridan-to'g'ri

¹Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

²Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./M.Uzmanaliyev,-T., "Yangi asr avlod" 2005.

³Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

ko'rsatilgan hollarda jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etilishi mumkin (masalan: JK 157-moddasi “Davlatga xoinlik qilish” jinoyatida “fuqarolik” jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida kelgan). Ya'ni, ushbu modda bo'yicha faqatgina O'zbekiston Respublikasi fuqarolari javobgar bo'lishi mumkinligini anglatadi.⁴.

Jinoyat subyektining zaruriy belgilariga to'xtalsak, **yosh** deganda, u yoki bu shaxsning alohida psixo-fiziologik holatini tavsiflovchi, tibbiy-biologik, ijtimoiy psixologik va huquqiy o'zgarishlar bilan aloqador bo'lgan, tug'ilishdan to inson hayotining qandaydir xronologik muddatigacha o'tgan vaqtning kalendar davri tushuniladi⁵. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, “Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar ushbu Kodeks 97, 98, 104 — 106, 118, 119-moddalari, 126¹-moddasining to'rtinchı — sakkizinchı qismlarida, 137, 164 — 166, 169-moddalari, 173-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ushbu Kodeksning 122, 123, 125¹-moddalarida, 126¹-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 127, 127¹, 128¹, 144, 146, 193—195, 205—210, 225, 226, 230 — 232, 234, 235, 279 — 302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

O'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga muvofiq va ushbu Kodeksning Umumiyligi qismi oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar"⁶. Mana shu modda belgilangan jinoyat sodir etgunga qadar tegishli yoshga yetmagan shaxslar javobgarlikka tortilmaydi.

Jinoyat subyektining yoshini aniqlash imkon bo'lmasa, sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkaziladi. Shaxsning yoshini belgilash nuqtai nazaridan ikki holatdagi ekspertiza xulosasini berishi mumkin.

Birinchi holatda, sud-tibbiyot ekspertizasi shaxsning yoshini belgilovchi minimal va maksimal yosh chegaralarini ko'rsatib beradi (masalan 15 yosh bilan 17 yosh o'rtasida). Xulosada subyektning Yoshi eng kam ko'rsatkichi miqdori olinib shaxsning tug'ilgan yili belgilanadi.

Ikkinchi holatda, sud-tibbiyot ekspertizasi shaxsning qaysi yili yoki oy tug'ilganligini ko'rsatib beradi. Biroq, unda shaxsning aniq tug'ilgan kuni yoki oyi

⁴Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiyligi qismi) / o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

⁵Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

⁶O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasi

ko'rsatilmaydi. Yil aniqlanganda o'sha yilning oxirgi kuni (31-dekabr) tug'ilgan kuni deb olinadi⁷.

Aqli rasolik deb – shaxs jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganlik va o'z harakatlarini boshqara olganligiga aytildi. Shaxsni aqli noraso deb topish uchun quyidagi mezonlar bo'lishi talab qilinadi:

- **Yuridik mezon;**

- **Tibbiy mezon.**

Yuridik mezon ham o'z navbatida:

- **tafakkuriy** (shaxs sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishining xavflilik xususiyatini anglamaslik);

- **irodaviy** (o'z harakatlarini boshqara olmaslik) kabi belgilaridan tashkil topadi. Mana shu ikki belgidan birining mavjud bo'lishi yuridik mezon mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida o'z harkatlarini anglay olmagan va o'z harakatlarni boshqara olmagan bo'lsa uni jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Aqli norasolikning yuridik mezoni deganda - shaxs o'zi sodir qilayotgan qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamasligi yoki boshqara olmasligi.

Shaxs o'zi sodir qilayotgan qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamasligi yoki boshqara olmasligining sababi esa, tibbiy mezonda ko'rindi.

Tibbiy mezon - shaxs ruhiy holati buzilganligining belgilarini ifodalaydi. Ular quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- ruhiy holatning surunkali buzilishi;
- ruhiy holatning vaqtinchalik buzilishi;
- aqli zaiflik;
- ruhiy holatning boshqacha tarzda buzilganligi.

Aqli noraso holatda, sodir qilingan qilmishlar uchun sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanilishi mumkin. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralar jazo chorasi deb e'tirof etilmaydi. Jinoyat qonuni mastlik holatida sodir qilingan qilmish uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi va shaxsni aqli noraso holatda deb topmaydi. Mastlik holatida jinoyat sodir etish, jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida qabul qilinadi. **Mastlik** - inson onggiga ta'sir qiladigan ma'lum bir vositalarni qabul qilish orqali vujuga keladigan holat. Ushbu vositalarga:

- alkogolli ichimliklar;
- psixotrop moddalar;
- giyohvandlik vositalari;
- giyovandlik vositalarining analoglari;

⁷ Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/R.Kabulov, A.A.Otajonov, I.A.Sottiyev va boshq.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.

- kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar kiradi (masalan: toksik moddalar). Patologik (alkogoldan) mastlik ruhiy holatning buzilishi hisoblanadi. Shaxsni aqli noraso holatda deb topishiga sabab bo'lishi mumkin.⁸.

Amaldagi jinoyat qonuniga binoan faqat jismoniy shaxslargina jinoyatning subyekti bo'ladilar. Jismoniy shaxs hisoblanmaydigan shaxslar (yuridik shaxslar) boshqa tirik mavjudot (it, ho'kiz, vahshiy hayvonlar), jismlar jinoyatning subyekti bo'la olmaydilar. Masalan, raqibidan o'ch olish maqsadida qopog'on itini qo'yib yuborish natijasida jabrlanuvchining badaniga shikast yetkazilsa, jinoyatning subyekti it emas, balki uning egasi jinoyatning subyekti bo'ladi. Egasi yo'q yoki quturgan it kishini tishlab jarohat yetkazsa, u it o'ldirilsa, jinoyatning subyekti sifatida emas, balki boshqa kishilarga ham jarohat yetkazmasligi yoki quturish kasalligini tarqalishining oldini olish maqsadida yo'q qilinadi.⁹

Jinoyat **maxsus subyekti** belgilarini o'rnatish huquqni qo'llash amaliyotida jinoyatni kvalifikatsiya qilishning shartlaridan biri hisoblanadi. Jinoyatning **maxsus subyekti** – jinoyat subyekti zaruriy belgilaridan tashqari yana Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida belgilangan va shu jinoyatlar uchun zaruriy belgi bo'lgan qo'shimcha belgilari ham mavjud bo'lgan subyektdir. Maxsus subyekt belgilarining mavjud emasligi ushbu belgilar ifodalangan jinoyat uchun garchi jinoyat subyekti umumiy belgilari mavjud bo'lsa ham, javobgarlikni istisno etadi. Bu ba'zi hollarda umuman jinoyatni istisno etadi, boshqa hollarda javobgarlik boshqa modda bilan belgilanadi. Masalan, harbiy yoki davlat siri bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni yo'qotish ushbu hujjatlarni saqlash majburiyati yuklanmagan boshqa shaxs tomonidan sodir etilsa, JK 163-moddasidagi jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. **Maxsus subyektlarni** quyidagi **mezonlarga** qarab guruhlarga ajratishimiz mumkin (misollar bilan berilgan).

Huquqiy maqomiga ko'ra: – fuqaroviylar holatiga qarab: O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'limgan shaxs va xorijiy davlat fuqarosi);

– jinoyat protsessi ishtirokchilari: ayblanuvchi, gumonlanuvchi, guvoh, tarjimon, ekspert va boshqalar;

– harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatga majburlar.

Demografik belgilariga qarab: – jinsiga qarab: erkak;

– yoshiga qarab – voyaga yetmagan ;

– oilaviy, qarindoshlik aloqalariga qarab – ota-onalari, ularning o'mini bosuvchilar yoki farzandlar.

Mansabdorlik holatiga qarab: – mansabdor shaxs;

– huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya;

⁸Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

⁹Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./M.Usmonaliyev,-T., "Yangi asr avlodii" 2005.

– ofitserlar, havo kemasi komandirlari va boshqalar.

Kasbiy majburiyatiga qarab: vrach yoki boshqa tibbiyot yoki farmatsevtika sohasi xodimlari .

Jabrlanuvchiga nisbatan yuqoriroq holatda bo‘lgan shaxs: jabrlanuvchining boshlig‘i. Jinoyat sodir qilayotgan shaxsning jinoyat bilan maxsus holatdaligi: jazoni o‘tash joylaridagi mahkum, oldin sudlangan shaxs, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanganlar;

Jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun boshqa zarur mezonlarga qarab,**sog‘lig‘iga qarab** – shaxsda OITS-infeksiyasingin mavjudligi¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat subyekti muhim elementlardan biridir.Uning zaruriy belgilari jinoyat sodir etgunga qadar qonunda belgilangan yosha yetganligi, aqli rasoligi va jismoniy shaxs bo‘lishidir.Yuridik shaxslarni javobgarlikka torta olmaymiz.Shuningdek, maxsus subyekt tushunchasi mavjud.Maxsus subyekt ayrim hollarda zaruriy belgi bo‘lib keladi,ya’ni maxsus subyekt jinoyat tarkibida mavjud emasligi, javobgarlikka tortish uchun asos mavud emasligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
2. Jinoyat huquqi.Umumiyligini qism.Oliy o’quv yurtlari uchun darslik./M.Usmonaliyev,- T., “Yangi asr avlod” 2005.
3. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik/R.Kabulov, A.A.Otajonov, I.A.Sottiyev va boshq.-T.:O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
4. Rustambayev M.X. O’zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.
5. Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiyligini qism)/ o’quv qo’llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

¹⁰Rustambayev M.X. O’zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.